

ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR: O‘QITISHNING YANGI USULLARI VA TA’LIMDA INKLYUZIVLIKNI TAMINLASH

Sattorova Sevara Jo‘rabekovna

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Pedagogika va ijtimoiy gumanitar fanlar fakulteti
Filologiya va tillarni o‘qitish (ingliz tili) yo‘nalishi
1-24 guruh talabasi

Tel raqam: +998 50-705 -44- 21

E-mail: sevarasattorova4421@gmail.com

Ilmiy rahbar: **Madieva Madina Yusupovna**

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Chet tillari va adabiyot kafedra o‘qituvchisi (PhD)

Tel raqam: +998 93 794 -50-00

E-mail: madinayusupovna1984@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o‘quv jarayonidagi o‘rni, innovatsion o‘qitish usullari va ularning inklyuziv ta’limga qo‘shgan hisssasi o‘rganiladi. Pedagogik texnologiyalar samarali o‘qitishni osonlashtiradi, individual ta’lim yondashuvlarini targ‘ib qiladi va o‘quvchilarning turli ehtiyojlarini qondiradi. Tadqiqot raqamli vositalar va sun‘iy intellekt inklyuziv ta’limni qanday yaxshilashi mumkinligini o‘rganadi va ularni amalga oshirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar beradi. Zamonaviy texnologiyalarga bog‘liq muammolar va mulohazalar ko‘rib chiqiladi, mas‘uliyatli va inklyuziv amalga oshirish muhimligi ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: Sun‘iy intellekt, Pedagogik texnologiyalar, inklyuziv ta’lim, o‘qitishning innovatsion usullari, raqamli vositalar, moslashuvchan ta’lim, ta’lim sifati.

MODERN PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES NEW METHODS OF TEACHING AND ENSURING INCLUSION IN EDUCATION

Abstract: This article examines the role of modern pedagogical technologies in the educational process, innovative teaching methods and their contribution to inclusive education. Pedagogical technologies facilitate effective teaching, promote individualized learning approaches, and meet the diverse needs of students. The study examines how digital tools and artificial intelligence can improve inclusive education and provides practical recommendations for their implementation. In addition, the article examines the challenges and considerations related to the integration of AI in education, emphasizing the importance of responsible and inclusive implementation.

Key words: Artificial intelligence, Pedagogical technologies, inclusive education, innovative teaching methods, digital tools, adaptive learning, educational quality, individualized approach.

СОВРЕМЕННЫЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ТЕХНОЛОГИИ НОВЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ И ОБЕСПЕЧЕНИЕ ИНКЛЮЗИВНОСТИ В ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация: В статье рассматривается роль современных педагогических технологий в образовательном процессе, инновационные методы обучения и их вклад в инклюзивное образование. Педагогические технологии способствуют эффективному обучению, продвигают индивидуализированные подходы к обучению и отвечают разнообразным потребностям студентов. В исследовании рассматривается, как цифровые инструменты и искусственный интеллект могут улучшить инклюзивное образование, и даются практические рекомендации по их внедрению. Кроме того, в статье рассматриваются проблемы и соображения, связанные с интеграцией ИИ в образование, подчеркивая важность ответственного и инклюзивного внедрения.

Ключевые слова и фразы: Искусственный интеллект, Педагогические технологии, инклюзивное образование, инновационные методы обучения, цифровые инструменты, адаптивное обучение, качество образования, индивидуальный подход.

Kirish

Zamonaviy texnologiyalarga qaratilgan e'tibor yildan yilga yaxshilanishi sababli bir qancha yangi o'quv dasturlari va usullar ko'paymoqda. Misol uchun ChatGPT, Google Translate, Duolingo kabi texnologiyalar ta'limni yanada qulay, samarali va qiziqarli bo'lishi uchun o'z hissasini qo'shadi. Ammo ayrim mutaxassislar aytishicha yangi dasturlar orqali o'rganishga to'sqinlik qilishi, o'quvchilarni unga haddan ortiq bog'lab qo'yishi yoki real hayotiy muloqotni kamaytirishi mumkinligini ta'kidlaydilar. Ushbu maqolada zamonaviy texnologiyalar ya'ni sun'iy intellekt o'rganishni haqiqatdan ham osonlashtiradimi yoki aksincha, uni murakkablashtiradimi, ilmiy tadqiqotlar va real misollar asosida tahlil qilamiz.

Muhokama va jarayonlar

Eng avvalo, O'zbekiston Respublikasi Prezidentimiz tomonidan 2023-yil 15- iyunda PQ-213 sonli qaroriga ko'ra "Ta'lim sifatini oshirish bo'yicha davlat dasturini" ko'paytirish haqida qaror qabul qildilar. Bu esa yurt boshimizning qo'llab quvvatlashi orqali zamonaviy texnologiyalarga foydalanishda ko'plab qulayliklar yaratilmoqda. Bunga misol tariqasida quyidagi dasturlar va ilovalarni ko'rsatishimiz mumkin:

1. Sun'iy intellekt ta'lim sohasida, til o'rganish davomida, tasvir ifodani gavdalandirishda, muloqot madaniyati yaxshilashda va bir qancha o'quv dasturlari mavjud bo'lib u orqali har qanday joyda yoki vaqtda darsliklarki oson ko'rib o'qish darajalarni yaxshishga yordam beradi. Pedagogik texnologiyalar ta'lim dasturlari, onlayn ta'lim platformalari, interaktiv multimedia resurslari va hamkorlikdagi raqamli muhitlarni o'z ichiga olgan keng ko'lamli vositalarni qamrab oladi. Ushbu texnologiyalar o'qituvchilarga bugungi o'quvchilarning ehtiyojlari va afzalliklariga moslashtirilgan dinamik va interaktiv o'quv muhitini yaratish uchun turli imkoniyatlarni taqdim etadi. Pedagogik texnologiyalardan samarali foydalangan holda, o'qituvchilar shaxsiylashtirilgan o'quv

tajribalarini osonlashtirishi, faol ishtirok etishni rag'batlantirishi va talabalar o'rtasida tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishi mumkin.

Izlanishlar va Natijalar

Ta'lim jarayonini faollashtirish va jadallashtirishga yo'naltirilgan pedagogik texnologiyalar" ni qo'llashdan maqsad:

-bo'lajak mutaxassislarni mavjud pedagogik qonuniyatlar va aniq shartsharoitga, asosan ta'lim-tarbiya jarayonini loyihalash samarali metod va vositalarni tanlashga o'rgatishdan iborat. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning vazifasi:

-bo'lajak o'qituvchilarga pedagogik texnologiya, rivojlangan mamlakatlar ilg'or pedagogik texnologiyasi. Talabalarga nazariy bilim berishda:

-pedagogik jarayonni loyihalash:

-ta'lim-tarbiya maqsadi, mazmunini va optimal metodlarini qo'llash

Ko'nikma va malakalarini shakllantirish:

-pedagogik diagnostika qobiliyatini o'stirishdan iborat.

O'quvchi shaxsi, uning mustaqil bilish faoliyati ta'lim jarayonida rivojlanib borishi tufayli ta'lim metodlarini takomillashtirishga ehtiyoj tug'iladi.

Yuksalgan o'quv natijalari: Raqamli va interaktiv uslublar yordamida o'quvchilarning bilim darajasi, ijodkorligi va muammolarni hal qilish ko'nikmalari sezilarli darajada oshgani qayd etilmoqda.

Resurslardan samarali foydalanish: Onlayn va mobil texnologiyalar orqali o'qituvchilar va o'quvchilar ko'proq o'zaro bog'lanish, ma'lumot almashish va izlanish jarayonlarini tezlashtirish imkoniga ega bo'lmoqda.

Xulosa

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, hozir kunda texnologiya rivojlangan bir paytda o'qitish tizimlarida ham katta o'zgarish ro'y bermoqda. Shu jumladan, Zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta'lim samaradorligini oshirishda va inklyuziv ta'limni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Sun'iy intellekt, moslashtirilgan o'quv dasturlari va raqamli texnologiyalar yordamida turli imkoniyatlarga ega o'quvchilar uchun teng ta'lim imkoniyatlari yaratilmoqda. Shu sababli, ta'lim muassasalari AKT va innovatsion pedagogik texnologiyalarni keng joriy etishlari lozim. Boshqa tomonda qaraganda, sun'iy intellekt imkoniyatlar katta bo'lganligi sababli insonlar undan yaxshi maqsadlarda foydalanishi kerakligini unutmazligi lozim. Shu bois, keyingi bir necha yil hayotimiz davomida o'qitishda sun'iy intellektlarning o'rnii katta burulishlariga sabab bo'ladi.

REFERENCES:

1. <https://cyberleninka.ru> (Pedagogik texnologiyalar asoslari J. Yo'ldoshev)
2. <https://jica.innovascience.uz>
3. <https://ilmiyanjumanlar.uz>
4. <https://www.herald.kokanduni.uz>
5. <https://www.mtgazeta.uz>